

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.U.Xamidjanov	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatli o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
A.A.Parmonov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili	90
M.A.Tursunboyeva	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi	97
M.I.Boymanova	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish	102
A.Matkarimov	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)	105
N.M.Xodjibolayeva	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	110
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi	114
N.Sayimbetova	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	117
A.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi	121
J.Sh.Mamayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati.....	125
S.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni.....	129
D.O.Djalilova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati.....	138
M.M.Азизов	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба?	141
L.Z.Xolmurodov	
9-10 yoshdagi bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari.....	147
I.M.Saidov	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi	151
O.A.Xo'jaqulov	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari	155

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili	161
B.B.Namozov	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida	166
M.T.Voxidova	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari.....	172
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari	176

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN-MOHİYATI****СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****THE ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF HERMENEUTIC COMPETENCE OF
FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS****Djalilova Dilnozaxon Obidjonovna¹**¹Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada musiqa ta'limida musiqa o'qitish fanlari bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini shakllantirish, fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется содержание и сущность развития герменевтической компетентности будущих учителей музыкального образования путем формирования интеграции музыкального образования и социальных и гуманитарных наук в музыкальном образовании, налаживания междисциплинарного сотрудничества.

Abstract

The article analyzes the content and essence of developing the hermeneutic competence of future music education teachers by forming the integration of music education and social and humanitarian sciences in music education, establishing interdisciplinary cooperation.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, germenevtik kompetentlik.

Ключевые слова: педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, герменевтическая компетентность.

Key words: pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, hermeneutic competence.

KIRISH

Ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichida o'qitish metodlari, vositalarini va tashkil etish shakllarini takomillashtirish zarurati yanada kuchaymoqda. Shuning uchun mutaxassislar tayyorlash, xususan, yangi davrga mos o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quv muassasalarini zamonaviy pedagogikkommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu kesimda musiqa ta'limida zamonaviy musiqa ta'limining keng qamrovli va chuqur ilmiy-metodik poydevorini ishlab chiqish jiddiy masalalardan bo'lib qolmoqda. Professional musiqachi uchun germenevtik kompetentsiyani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda ta'lim standartlari nafaqat jarayonga, balki ta'lim natijalariga, kasbiy faoliyatga tayyor, jamiyatga moslasha oladigan va jamiyatga foyda keltira oladigan, o'zini qoniqtiradigan mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Kompetensiya masalalari A.V.Barannikov, E.A.Bystrova, V.A.Bolotov, V.P.Borisenkov, A.Daxin, G.S.Zavatskaya, I.A.Zimnyaya, G.A.Larionova, O.E.Lebedev, A.F.Prisajnyaya, L.V.Savelyeva, G.Selevko, I.S.Sergeev, B.V.Serikov, M.A.Xolodnaya, A.V.Xutorskoy, T.I.Shamova, N.M.Shanskiy kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Oliy ta'limda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, «bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiyestetik kompetentligini tashkil etishda musiqiy san'at va pedagogikaning integratsiyalashuvi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to'liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta'limda musiqa o'qituvchisi tayyorlash tizimi

PEDAGOGIKA

juda murakkab bir qator (musiqiy pedagogik, amaliy va nazariy, uslubiy, dirijor, vokal-xor, instrumental ta'lim) komponentlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining germenevtik faoliyatga tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarni o'rganish uchun integral yondashuv zarur.

Hozirda musiqa ta'limi sohasi masofaviy ta'lim kabi yangi shakllarni o'z ichiga olib, rivojlanib bormoqda. Bular onlayn-dars mashg'ulotlardan tashqari telekommunikatsion tanlov loyihalari, Respublika va xalqaro onlayn fan olimpiadalar, internet va elektron platformalar yordamida o'tkaziladigan viktorina va tanlovlar, masofaviy o'qitilayotgan turli fanlarning o'qitish metodikalaridir. Telekommunikatsiya muhiti, fanni o'qitish mazmuniga o'z qarashiga ega bo'lgan holda umumiy madaniy fazilatlarini shakllantirishga harakat qilishga, tegishli qarorlar qabul qilishga, tahlil qilish va kerakli ma'lumotlarni saralab olishga chorlaydi. Kompyuter texnologiyalarni tahlil qilgan holda, bugungi kunda ularni qo'llash zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tish mumkin: - musiqa asarlarini tinglab tahlil qilish; - musiqa yaratish; - bir vaqtda matn, audio-yozuv va video ko'rinishdagi musiqiy materialni nazariyasi va tarixini o'rganish; - shaxsiy musiqiy dasturlarni yaratish; - internet tarmog'idan foydalangan holda turli musiqiy ma'lumotlarni olish. Bunday imkoniyatlar orqali bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy bilimi va pozitsiyasini tanlashi, musiqa turlari bo'yicha o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish ham mumkin. Kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axborot-kommunikatsiya makoniga moslasha oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Talabalarning musiqiy fikrlashlari, ularning musiqiy qobiliyatlarini yaxshi rivojlanishiga erishish uchun musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyatida "konseptual fikrlash qobiliyatlari" eng ko'p namoyon bo'lishi kerak. Musiqa pedagogikasi bilan bog'liq tadqiqotlarga asoslanib, musiqiy mahorat – bu o'z musiqiy faoliyatini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir degan fikrga keldik. Rus olimi V.Asafiyev o'z asarlarida "umumta'lim maktabida musiqa o'qituvchisi faqat bir sohadagi "mutaxassis" bo'lmasligi kerak" degan fikrlarni bildirib, u nazaryachi, musiqa tarixchisi, musiqa etnografi va har doim ham bir tomondan diqqatni jalb qilish uchun musiqa asbobini yaxshi biladigan ijrochi bo'lishi kerak deb aytib o'tgan. Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi uning faoliyati kasbiy madaniyat va pedagogik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan turli tarkibiy qismlarni birlashtiradigan kompleks sifatida tavsiflangan shaxsning integratsiyalashgan sifati hisobdanadi. Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllanib borishi, musiqiy tafakkurini oshishi va musiqiy ijrochilikni yaxshi bilishi bilan birga estetik didi va badiiy ijodkorligi yuksak rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Shu bois bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi bir nechta kompetensiyalarni o'zida mujassam ettirgan bo'lishi kerak: -musiqa o'qituvchisi o'zining estetik didi va madaniyati bilan ajralib turishi kerak; -musiqiy faoliyatda yuksak didiligi bilan ajralib turishi kerak; -o'qituvchi juda keng musiqiy dunyoqarashga ega bo'lishi kerak; - musiqa o'qituvchisi ko'p tilli musiqashunos bo'lishi kerak; -musiqa o'qituvchisi – psixolog bo'lishi kerak; -pedagogik jarayonni zamon talablari asosida tashkil eta olishi kerak; -musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida mujassam ettirgan bo'lishi kerak. Shunday ekan, bo'lajak musiqa o'qituvchisining asosiy bilim va ko'nikmalariga germenevtik didi, malaka va ko'nikmalari ham kirishi uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida germenevtik kompetentlikni rivojlantirish vazifasi faqatgina go'zallikni tushunish va baholashni o'rgatish emas, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undashdir. «Germenevtik tarbiya muammosi avvaldan jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan. So'nggi paytlarda bu to'g'risida juda ko'p fikrlar aytilmoqda. Ba'zilar badiiyestetik tarbiyaning asosiy vazifasi talabalarda ijodiy faollikni tarbiyalash, deyishsa boshqalar go'zallikni xunuklikdan farqlashni o'rgatish, uchinchilar yuksak ma'naviyat va rivojlangan germenevtik didni shakllantirish deya ta'kidlashmoqda». Darhaqiqat, germenevtik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri germenevtik did tarbiyasidir. Estetik ong tizimida o'ziga xos o'rin tutuvchi estetik did eng nozik, ziddiyatli, murakkab shuningdek qiziqarli va dolzarb masalalardan biri. Estetik didning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning voqelikka, narsa yoki hodisaga ko'rgan holatda beriladigan bahoda namoyon bo'ladi. Ilk bor ko'rib turgan san'at asari, mutola qilingan kitobga mushtariy yoshi, kasbi, ma'lumoti darajasiga ko'ra turlicha baho beradi. Mana shu jihatning o'zi uning faqat alohida insonga xos bo'lgan ammo, jamiyat uchun ham muhim ekanligini, ya'ni «shaxsiy masala» emasligini ko'rsatadi. Bu oddiygina «yoqadi yoki yoqmaydi» so'zlari orqali ifodalansada bizning estetik didimiz, dunyoqarashimiz, madaniyatimizni namoyon etadi. Bu bahoda bizning qarashlarimiz, tajribamiz, biz yashayotgan jamiyat, davr qarashlari ham

ma'lum ma'noda aks etadi. Har bir talaba g'oyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar va san'at bilan muloqotda bo'lsa, go'zallikdan zavqlanishni o'rganadi, uni his etadi, uni yaratadi. Aksincha sayoz ilmiypedagogik muhit, bo'lajak o'qituvchilarning didini ham sayozlashtirib qo'yadi. Badiiy did bilan estetik did bir-biridan farq qilsa-da, har doim bir-birini to'ldirib boradi. Badiiy did estetik didga asoslanadi. Turli janrlardagi badiiy adabiyot namunalari-hikoyalar, qissalar, mumtoz asarlar, ulardagi badiiy obrazlar, tasviriy vositalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi, badiiy qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirishiga yordam beradi, germenevtik zavq bag'ishlaydi. Bu orqali ularning ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi, hissiyotida ulug'vor tuyg'ular shakllana boshlaydi. Natijada, ularning ta'lim berish samaradorligi va o'quvchilar bilan ishlash sifati rivojlanadi.

XULOSA

Germenevtik kompetensiyani shakllantirish bir martalik va hatto bir semestrlik jarayon emas, u universitetdagi butun o'qish davomida doimiy bo'lishi kerak. Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan mavjud madaniy boyliklarga tayanadi. Tarixiy vorislik kishilik jamiyati, jumladan, madaniyati taraqqiyotining zaruriy shartidir. Madaniyat boyliklari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida uning extiyohlari tufayli yuzaga kelib va mazkur jamiyat hayotini aks ettirib, shu jamiyat bilan birga yo'q bo'lib ketmaydi, balki o'z davrini o'tab, keyingi avlodlar uchun madaniy meros bo'lib qoladi. Ushbu meros yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirishda, ularni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazishda salmoqli ruhiy va ma'naviy oziq bera oladigan g'oyaviy va hissiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishi, hamda barcha ijodkorlarimiz uchun ilhom manbai bo'lib qolishiga hech shubha yo'qdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiygumanitar yo'nalishdagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida)/Ped.fan.dok... Diss. – T.: TDPU, 2006.
2. Закирова А.Ф. Теоретические основы педагогической герменевтики: монография / А.Ф.Закирова. - Тюмень: Тюменский государственный университет, 2001. - 152 с.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А.Зимняя / / Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 3 4 -4 2.
4. Ларионова Г.А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вуза: монография / Г.А.Ларионова. - Челябинск, 2004. - 528 с.
5. Селевко Г. Компетентности и их классификация / Г.Селевко // Народное образование. - 2004. - № 4 - С. 138-143.
6. Фомичёва И.Г. Философия образования: некоторые подходы к проблеме / И.Г.Фомичёва. - Новосибирск: Изд-во СО РАН, 2004. - 242 с.